

## DIVIDENDNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING KORPORATIV MOLIYAVIY MUNOSABATLARDAGI O‘RNI

**Toshto‘xtayeva Marjona Nuriddin qizi**

*TDIU Moliya fakulteti 2-kurs talabasi.*

*toshtuxtayevamarjona@gmail.com*

*+99888 534 03 08*

**Rahimova Nozimaxon Jahongir qizi**

*TDIU “Moliya” kafedrası o‘qituvchisi*

*rahimovanozimaxon83@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada dividend siyosatining ilmiy jihatlari va hozirgi kunda mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy boshqaruvlaridagi olib borilayotgan dividendlar to‘lovlari va dividendlarni to‘lash bo‘yicha yuzaga kelayotgan bir qancha muammolar o‘rganilib, tahlil qilindi.*

*Iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning hozirgi davrida davlatimizda korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning raqobatbardoshligini ta‘minlash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarni amalga oshirish va yurtimizda yirik kompaniya va korxonalarni tashkil etish borasida dividend siyosatiga alohida urg‘u berilmoqda. Dividend siyosati kompaniyalar moliyaviy strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib, uning asosiy vazifasi kompaniya rivojlanishi uchun yetarli darajadagi moliyalashtirish zaruriyati bilan aksiyadorlar manfaatlarining optimal kombinatsiyasini ta‘minlash hisoblanadi. Dividend siyosati kompaniyaning aksiyadorlarga dividendlar to‘lash kerak bo‘lgan foydani qo‘llash sohasidagi siyosatdir.*

*Dividendlarning korporatsiya moliyasidagi rolini ko‘rib chiqish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlarning kafolatli to‘lanishini ta‘minlash uchun dividend fondini yaratish, shuningdek dividendlarning shakllari, to‘planishi va sarflanishining oshkoralik rejimini shakllantirish va to‘lanadigan dividendlarning xilma – xilligi oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratish zarur.*

**Аннотация.** *В современный период экономического и политического развития в нашей стране реализуется ряд реформ, направленных на эффективную организацию деятельности предприятий и обеспечение их конкурентоспособности. Особый акцент делается на дивидендной политике в связи с реализацией этих реформ и созданием крупных компаний и предприятий в нашей стране. Дивидендная политика является неотъемлемой частью финансовой стратегии компании, и ее основной задачей является обеспечение оптимального сочетания интересов акционеров с необходимостью достаточного финансирования для развития компании. Дивидендная политика – это политика компании в области использования прибыли для выплаты дивидендов акционерам.*

**Annotation.** *In the current period of economic and political development, a number of reforms are being implemented in our country to effectively organize the activities of enterprises and ensure their competitiveness. Special emphasis is being placed on the dividend policy regarding the implementation of these reforms and the establishment of large*

*companies and enterprises in our country. Dividend policy is an integral part of the company's financial strategy, and its main task is to ensure the optimal combination of shareholders' interests with the need for sufficient financing for the company's development. Dividend policy is the company's policy in the area of the use of profits to pay dividends to shareholders.*

**Kalit so'zlar:** *Dividend, korporativ boshqaruv, aksiya, aksiyadorlik jamiyatlari, dividend siyosati, investitsiya, investitsion faoliyat, foyda, fond bozori, kompaniya, moliyaviy boshqaruv.*

**Ключевые слова:** *Дивиденды, корпоративное управление, акции, акционерные общества, дивидендная политика, инвестиции, инвестиционная деятельность, прибыль, фондовый рынок, компания, финансовый менеджмент.*

**Key words:** *Dividend, corporate management, share, joint-stock companies, dividend policy, investment, investment activity, profit, stock market, company, financial management*

## KIRISH

Dividendlash daromadni to'liq to'lash yoki undan keyinchalik daromad olish maqsadida daromadni qayta investitsiyalash bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Bugungi kunda dividend siyosati korxonaning umumiy moliyaviy siyosatining ajralmas qismidir. Hozirda dividend to'loviga oid masalalar fuqarolik kodeksi, aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun va aksiyadorlar huquqlarini himoya qiluvchi hujjatlar orqali tartibga solinadi.

Dividendlar iqtisodiy va korporativ moliyaviy munosabatlar uchun ahamiyatli. Investorlar va korxonalarning dividendlar iqtisodiy qiymatini tushunishlari va ularning korporativ moliyaviy munosabatlarga ta'siri juda muhimdir. Dividend aksiyalar odatiy dividendlar orqali sof daromad taqdim etishi mumkinligi tufayli daromad investorlarni jalb qiladi. Ular investitsiyalardagi daromadni oshirish imkoniyatini taklif qiladi.

Dividend aksiyalarini ko'rib chiqish jarayonida zarur bo'lgan omillar orasida dividend to'lovlarining barqarorligi va istiqomati, kompaniyaning o'sish potentsiali va joriy iqtisodiy xolat kiritiladi. Dividend aksiyalarini investitsiya portfeyllariga qo'shish daromad strategiyalarini kuchaytirish va uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarga erishishga yordam berishi mumkin.

Dividend siyosatining ahamiyati kompaniyaning dividend siyosati uning moliyaviy salomatligi va investorlar uchun jozibadorligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'z foydasining qancha qismi aksiyadorlarga dividendlar ko'rinishida taqsimlanishini aniqlash orqali kompaniya o'z obro'sini, o'sish potentsialini va umumiy moliyaviy barqarorlikni belgilaydi. O'zbekistonda tadbirkorlik sub'ektlari ichki va xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda dividend siyosatining ahamiyatini tobora ko'proq anglab yetmoqda. Ushbu maqola dividend siyosatining ma'nosi va ahamiyatini, shuningdek uning kompaniyalar va aksiyadorlarga ta'sirini o'rganadi. Asosan, dividend siyosati kompaniya foydasining bir qismini uning aksiyadorlari o'rtasida taqsimlash bo'yicha qaror qabul qilish jarayonini anglatadi. Ushbu siyosat turli shakllarda bo'lishi mumkin, masalan, muntazam naqd dividendlar, aksiyadorlik dividendlari yoki ikkalasining kombinatsiyasi. Dividend siyosatining asosiy maqsadi aksiyadorlarni kompaniya daromadlaridan ulush bilan ta'minlash orqali investitsiyalari uchun mukofotlashdir. Biroq, dividend siyosati boshqa muhim vazifalarni ham bajaradi.

Birinchiidan, yaxshi tuzilgan dividend siyosati kompaniyaning bozordagi obro'si va ishonchini oshiradi. Agar kompaniya doimiy ravishda dividendlar to'lab tursa va ularni vaqt o'tishi bilan ko'paytursa, u investorlarga ijobiy signal yuboradi, bu kompaniyaning moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror foyda keltira olishidan dalolat beradi. Bu obro'-e'tibor ko'proq investorlarni jalb qiladi va kompaniyaning uzoq muddatli o'sishi va barqarorligiga hissa qo'shishi mumkin. Ikkinchidan, dividend siyosati kompaniyaning tashqi manbalar orqali kapitalni jalb qilish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Kompaniyalar dividendlar to'lash tarixiga ega bo'lsa, ular potentsial investorlar va kreditorlar uchun yanada jozibador bo'ladi. Bu, ayniqsa, O'zbekiston kabi ichki va xorijiy investitsiyalar iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlat uchun dolzarbdir. Shu sababli, to'g'ri dividend siyosati kapitalni jalb qilish va kengaytirish loyihalarini moliyalashtirish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, dividend siyosati aksiyadorlarni qimmatli daromad manbai bilan ta'minlaydi. Muntazam dividendlar olish orqali aksiyadorlar pul oqimining barqaror oqimidan bahramand bo'lishlari va o'zlarining moliyaviy farovonligi uchun kompaniya muvaffaqiyatiga tayanishi mumkin. Bu, ayniqsa, nafaqaga chiqqanda daromad olmoqchi bo'lgan yakka tartibdagi investorlar yoki asosiy daromad manbai sifatida dividend daromadiga tayanadiganlar uchun juda muhimdir. Dividend siyosati, agar to'g'ri amalga oshirilsa, ushbu manfaatdor tomonlarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashi mumkin. O'zbekistondagi kompaniyalar foydani taqsimlash bo'yicha aniq va izchil siyosatni yo'lga qo'yish orqali o'z obro'sini oshirishi, sarmoya jalb etishi va aksiyadorlarga daromad keltirishi mumkin. Dividend siyosatining ahamiyati o'sishda davom etar ekan, korxonalar o'z faoliyatining barqarorligi va muvaffaqiyatini ta'minlash uchun o'z yondashuvlarini diqqat bilan ko'rib chiqishlari kerak.

Dividend siyosati moliyalashtirish sohasida kompaniyaning boshqaruv qarorlarining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Kompaniya dividend siyosatining eng muhim jihati bo'lib, dividend to'lovlari va uning kompaniya rivojlanishi uchun qoldiriladigan qismi o'rtasida foydani taqsimlashning optimal nisbatlarini topish hisoblanadi<sup>4</sup>.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

XX asrning 50-chi yillari o'rtalarida iqtisodchi J.Lintner tomonidan korporatsiyalar menejerlari o'rtasida o'tkazilgan dividend siyosati bo'yicha so'rovnomalar shuni ko'rsatdiki, kompaniya tomonidan dividendlar miqdorini belgilash to'rtta "tipik faktlar" bilan chegaralanadi.

1. Kompaniyalar dividend to'lovlarning uzoq muddatga belgilangan normativ koeffitsiyentiga rioya qiladilar. Barqaror daromadga ega bo'lgan kompaniyalar odatda dividendlar uchun foydaning katta qismini ajratadi, rivojlanayotgan kompaniyalarda esa dividend to'lovlari miqdori kamroq bo'ladi.

2. Menejerlar dividendlarning mutlaq darajasidan ko'ra, ularning o'zgarishiga ko'proq e'tibor beradilar. Chunonchi, 2,0 dollar miqdorida dividend to'lash yaxshi moliyaviy qaror bo'lishi mumkinki, agar oldingi yilda to'langan dividend miqdori 1,0 dollarga teng bo'lgan bo'lsa; garchi oldingi yil dividendlari ham 2,0 dollar bo'lgan bo'lsa, bunday qarorning ahamiyati katta emas.

3. Dividendlar miqdorining o'zgarishi foydaning uzoq muddatli va barqaror o'zgarishi oqibati hisoblanadi. Menejerlar dividend to'lovlarini «silliqlab yuboradilar». Foydaning vaqtinchalik o'zgarishlari, odatda, dividendlarga ta'sir ko'rsatmaydi.

4. Agar dividendlarning oldingi darajasiga qaytish imkoniyati mavjud bo'lsa, menejerlar ularni o'zgartirishga shoshilmaydilar. Ular dividendlarning oshishi haqida e'lon qilingan qarorning bekor qilinishidan ko'proq xavotirlanadilar.

Lintnerning oddiy modeliga ko'ra, dividendlar miqdori qisman firmaning joriy foydasiga va qisman oldingi yildagi dividendlar miqdoriga, oldingi yil dividendlari esa, o'z navbatida, o'sha yildagi va undan oldingi yildagi dividendlar miqdoriga bog'liq va h.k. Demak, Lintner haq bo'lsa, dividendlarni joriy va oldingi foydaning o'rtacha olingan miqdori deb ta'riflash mumkin.

Ta'kidlab o'tilganidek, kompaniyaning dividend siyosati uning moliyalashtirish sohasidagi boshqaruv qarorlarining ajralmas qismidir. Dividend siyosatining eng muhim jihati dividend to'lovlari va kompaniyaning rivojlanishi uchun zarur qoladigan qismi o'rtasida foydani taqsimlashning optimal nisbatlarini topishdir. Boshqa tomondan esa dividend siyosati dividendlarni to'lashga ketadigan foyda ulushi bo'yicha qarorlar to'plamini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani yozish jarayonida dividend siyosati o'rganib chiqildi. Mavzuni yoritish jarayonida guruhlash, sintez qilish va statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan kompaniyalarning dividend siyosati va aksiyalari statistikasi o'rganib chiqildi. Mavzuni yoritishda A.A Temirovning "Dividendlar va dividend siyosati" o'quv qo'llanmasi asos qilib olindi va uzex.uz, gazeta.uz saytlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Bozorda dividend tendensiyalarini tahlil qilish, investorlar munosabatini va bozor analizini tushunish uchun muhimdir. Tadqiqotda dividendlarning asosiy huquqiy xususiyatlari o'rganilib chiqildi. Dividend siyosati sohasidagi zamonaviy yondashuvlar sifatida shu narsa aniqlandiki, oxirgi o'n yillikda dividendlar roli oshib borishi kuzatilmoqda va ularni muntazam to'lash amaliyoti namoyon bo'lmoqda. Ta'kidlash zarurki, mazkur jarayonlar asosan iqtisodiy, siyosiy va tarixiy asosga egadir.

Boshqa masalalar orasida dividendlarni to'lashning maqsadga muvofiqligi va bunday qarorlarning korporativ muhitga ta'siri o'rganildi. Hozirgi sharoitlarda ketma-ketlikdagi va investorlarga tushunarli bo'lgan dividend siyosati kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy o'sishiga qaratilgan strategiyasining muhim elementi hisoblanadi. Dividendlarning miqdori va muntazam to'lab turilishi - aksiyadorlik jamiyati organlari faoliyatining samaradorligini baholashning eng muhim mezonlari hisoblanadi.

So'nggi 7yil davomida "O'zRTXB" AJ tomonidan hisoblangan va to'langan dividendlar

### 1-jadval

To'lov yili	Dividend to'langan payti	Oddiy bir aksiya uchun dividend (so'm)	Dividendlar to'lash uchun yo'naltirilgan sof foyda %	Dividendlar to'lash uchun yo'naltirilgan sof foyda summasi	Muomala dagi aksiyalar soni	Dividendlar taqsimlangan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining sanasi
2023-yil	2022-yil	2300.0	87.21%	172 404 366 000.00	74 958 420	18.03.2023
2022-yil	2021-yil	1650.0	88.31%	123 681 393 000.00	74 958 420	19.03.2022
2021-yil	2020-yil	1100.0	86.95%	82 454 262 000.00	74 958 420	20.03.2021
2020-yil	2019-yil	2490.0	75.135%	62 215 488 600.00	24 986 140	22.03.2020
2019-yil	2018-yil	550.0	52.23%	13 742 377 000	24 986 140	24.03.2019
2018-yil	2017-yil	230.0	65.07%	746 812 200.00	24 986 140	25.03.2018
2017-yil	2016-yil	200.0	61.99%	997 228 000.00	24 986 140	26.03.2017

Aksariyat mamlakatlarda aksiya egalari dividend to'lash tartibi, shakllari va usullari qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. O'zbekistonda ushbu jarayonni tartibga solish O'zbekiston Respublikasining 2014-yil maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. Unga ko'ra aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarning har bir turi bo'yicha qabul qilingan dividendlarni to'lashi lozim.

Norezident yuridik shaxslarning aksiyalar bo'yicha dividendlari uchun foyda solig'ining 5 foiz stavkasi tatbiq etiladi. Rezident va norezident jismoniy hamda yuridik shaxslarning xo'jalik jamiyatlari obligatsiyalari bo'yicha daromadlari daromad solig'i va foyda solig'idan ozod qilinadi.

2023-yilda aksiyalar bo'yicha eng ko'p dividend to'lagan kompaniyalar

### 2-jadval

Kompaniya nomi	Har bir aksiya uchun so'm to'lov qilgan	Dividendlik daromadi %
<b>UzAuto Motors (UZMT)</b>	3 538 so'm	5 %
<b>TOVAR-XOM ASHYO BIRJASI (URTS)</b>	2 300 so'm	11 %
<b>UZMETKOMBINAT (UZMK)</b>	1 211.97 so'm	14 %

Dividend to'lash mexanizmi odatda kompaniyaning moliyaviy holatiga va uning rivojlanish strategiyasiga bog'liq. Dividendlarning ikkita asosiy turi mavjud: naqd pul ko'rinishidagi dividendlar va aksiyalar ko'rinishidagi dividendlar.

1. Naqd pul ko'rinishidagi dividendlar: kompaniya naqd dividend to'lashga qaror qabul qilganda, u ma'lum miqdorni aksiyadorlar hisobiga o'tkazadi. Bu muntazam ravishda sodir bo'lishi yoki emitentning tegishli organi maxsus qarori natijasi bo'lishi mumkin.

2. Aksiyalar ko‘rinishidagi dividendlar: kompaniya aksiyadorlarga naqd pul o‘rniga yangi aksiyalarni ham taklif qilishi mumkin. Ushbu dividend to‘lash usuli ba‘zan kompaniya o‘z pul zaxiralarini saqlab qolmoqchi bo‘lgan moliyaviy qiyinchiliklar davrida qo‘llaniladi.

Dividendlarni to‘lash siyosatining barqarorligi uzoq vaqt mobaynida ularning o‘zgarmas summasini to‘lashni nazarda tutadi va aksiyadorlarga turli holatlardan qat‘iy nazar, joriy daromadlarning o‘zgarmasligiga ishonch hissini uyg‘otadi hamda fond bozorida aksiyalar barqarorligini ta‘minlab beradi. Shunday ekan ayni damda dividendlarni to‘lash siyosatining barqarorligini ta‘minlash va ularni nazorat qilish mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirishning ustuvor maqsadi hisoblanadi.

### **XULOSALAR**

Dividendlar kompaniyalar iqtisodiy qadriyatiga va ularning moliyaviy aloqalari uchun muhimdir. Ular kompaniyaning moliyaviy holatini qanday ko‘rsatishini ta‘minlaydilar va investorlarni jalb qila olish imkoniyatini oshiradilar.

Ayni vaqtda shu narsani inobatga olish zarurki, dividend siyosati ko‘p jihatdan aksiyador kapitalining tuzilishi va joylashuviga ham bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasidagi ko‘pgina aksiyadorlik jamiyatlari «oyoqqa turish» bosqichida bo‘lib, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish uchun investitsiya resurslarga muxtojdirlar. Shuning uchun ham tabiiyki, ularni dividend siyosatlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri foydani moliyalashtirishning aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlab berishdan ustunroq qo‘yishidir.

Shuning uchun bu masalada shunday kafolatlar yaratish kerakki, olingan foyda qayta sarmoyalashga qaratilgan holda, aksiyadorlik jamiyatining tadbirkorlik faoliyatiga ta‘sir qila oladigan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy siyosatini va dividend siyosatini nazorat qilishda hukumatning vakolatlarini va davlat qonunlarining ahamiyatini oshirish bilan birgalikda aksiyadorlik jamiyatlarining dividendlarni to‘lashga layoqatligini ham ta‘minlash zarur. Bu islohotlar orqali esa mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirish, firma va korxonalar sonini ko‘paytirish hamda chet el investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatlarini oshirishga erishish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizov X.T. va boshqalar. Raqobat huquqi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDYuU, 2016, 326 b.
2. Арнольд Г. Руководство по корпоративным финансам: Пособ. по финан. рынкам, реш.и метод.. Пер. с англ. М.А. Епанов. – Баланс Бизнес Букс, 2012, 722 с.
3. Балдин, К.В. Управление рисками в инновационно инвестиционной деятельности предприятия: Учебное пособие / К.В. Балдин. – М.: Дашков и К, 2013, 420 с.
4. Бандурин А.В., Гуржиев В.А., Нургалиев Р.З. Финансовая стратегия корпорации. М. Юнити.2016, 324 с.
5. Бланк И.А. Финансовая стратегия предприятия. Учебный курс. К. Нико Центр. 2016, 520 с
6. А.А. Temirov. Dividendlar va dividend siyosati . O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2021

7. Rahimova N. et al. Davlat xaridi munosabatlarining subyektlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 934-940.

**INTERNET SAYTLAR:**

1. <https://ffin.uz/uz/news/8401-2023-yilda-aksiyalar-boyicha-eng-kop-dividend-tolagan-kompaniyalar>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/18/dividend/>
3. <https://uzex.uz/fr/pages/public-data-on-accrued-dividends>